Artikova Yulduz Akmalovna (filologiya fanlari doktori, Xalqaro Nordik universiteti, Toshkent, "O'zbekiston Ijtimoiy fanlar va jurnalistika" kafedrasi professori v.b.; E-mail: ortiqovayulduz@gmail.com)

OAVDA MILLIY IDENTIVLIKNING NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalarida milliy identivlikning namoyon bo'lishi va shakllanish jarayonlari tahlil qilinadi. Izlanishda medianing jamiyatda milliy o'zlikni anglashga ko'rsatadigan ta'siri tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan yoritilgan. Globallashuv va raqamlashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlab qolish, til, urf-odatlar va madaniy merosning mediada ifodalanish xususiyatlari muhokama qilinadi. Shuningdek, sovet davri va mustaqillik yillarida OAVning milliy identivlikni tiklashdagi o'rni tahlil etilib, zamonaviy mediada yuzaga kelayotgan muammolar va tahdidlar ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar: *ommaviy axborot vositalari, milliy identivlik, milliy o'zlikni anglash, globallashuv, media madaniyati, milliy qadriyatlar, jurnalistika.*

ПРЕДСТАВЛЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В СРЕДСТВАХ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ

Аннотация. *В статье рассматриваются процессы проявления и формирования национальной идентичности в средствах массовой информации. Анализируется роль печатных изданий, радио, телевидения и цифровых медиа в формировании общественного сознания и национального самосознания с исторической и современной точек зрения. Особое внимание уделяется влиянию глобализации и цифровизации на сохранение национальных ценностей, языка, традиций и культурного наследия в медиапространстве. Также исследуется роль СМИ в советский период и годы независимости в восстановлении национальной идентичности, а также выявляются современные проблемы и угрозы.*

Ключевые слова: *средства массовой информации, национальная идентичность, национальное самосознание, глобализация, медиакультура, национальные ценности, журналистика.*

REPRESENTATION OF NATIONAL IDENTITY IN THE MEDIA

Annotation. *This article examines the representation and formation of national identity in mass media. The role of print media, radio, television, and digital platforms in shaping public consciousness and national self-identification is analyzed from historical and contemporary perspectives. Particular attention is paid to the impact of globalization and digitalization on the preservation of national values, language, traditions, and cultural heritage in the media space. The article also explores the role of the media during the Soviet period and the years of independence in restoring national identity, highlighting current challenges and threats related to globalization and information influence.*

Key words: *mass media, national identity, self-identification, globalization, media culture, national values, journalism.*

Kirish (Introduction). Ommaviy axborot vositalari paydo bo'lganidan beri milliy identivlik masalasi dolzarb bo'lib kelgan. OAV doimo bu mavzuga aloqador bo'lib kelganligini ta'kidlash kerak. O'rta asrlarda matbaaning paydo bo'lishi, keyinchalik, gazeta va jurnallarning ommalashuvi millat, til va madaniyat borasidagi g'oyalar tarqalishiga poydevor bo'ladi. Bosma ommaviy axborot vositalari milliy tillardan foydalanish ko'lamini oshirib, lingvistik o'ziga xoslik va madaniy ong shakllanishiga turtki bo'ldi. Turli tarixiy evrilishlar davrida matbuot aholida milliy g'oyani shakllantirish, vatanparvarlik tuyg'ularini oshirishga xizmat qildi. "Milliy identivlik – vataniga muhabbat, boshqa fuqarolar oldidagi burch kabi tuyg'ularni ham paydo qiladi. Milliy g'urur va o'z mamlakatining o'ziga xosligini anglash etnik guruhlar o'rtasidagi totuvlikka turtki bo'ladi".[1]

Taraqqiyoti davrida ommaviy axborot vositalari auditoriyaning milliy dunyoqarashini shakllantirish, tarixiy ma'lumotlarni yetkazishda muhim o'rin tutdi. "Asrlar osha kelayotgan o'ziga xos an'analarni davom ettirish, avlodlar o'rtasidagi mehr-oqibatni asrab-avaylash o'zbek xalqiga xos xususiyatlardan hisoblanadi. Ming yillar davomida saqlanib kelayotgan tarixiy va milliy qadriyatlarni oqilona va ilmiy targ'ib qilish milliy o'zlikni saqlab qolishning muhim shartlaridandir".[2]

---

[1] Artikova Y.A. Milliy o'zlikni anglash: tarix, mohiyat va asosiy tushunchalar. "Ilm sarchashmalari", 10-son (oktabr 2025), 123-bet.

[2] Алимов Б.С. Медиа маконда миллий манфаатлар. T., Talim–media nashriyoti. 2019, 73-бет.

XX asrda elektron ommaviy axborot vositalari bo‘lgan radio va televideniyaning rivojlanishi hammabop mediani auditoriya e’tiboriga taqdim etdi. Radioda so‘zning jonlanishi, televideniyadagi jonli efirlar ommaning ijtimoiy ongiga ta’sir etuvchi eng samarali vosita bo‘lib xizmat qildi. Bunda madaniyat, tarix, urf-odatlarga bag‘ishlangan ko‘rsatuv va eshittirishlar aholida milliy identivlik g‘oyalarini mustahkalanii-shiga turtki bo‘ldi. “Mentalitet televideniya mavjudligining ko‘plab jihatlariga, masalan, madaniy qadriyatlar va an’analarga sadoqat, umumqabul qilingan qoidalar va xulq-atvorga rioya qilish, ijtimoiy hayot normalari, albatta, jurnalistning televideniya nutqining lingvistik va stilistik xususiyatlariga ta’sir qiladi”.[1]

Asosiy qism (Main part). Yigirmanchi asr oxirida internetning paydo bo‘lishi va keng tarqalishi postmodernizm davri va globallashuv jarayonida milliy o‘ziga xosliklar xalqaro madaniyat ta’siriga tushishiga sabab bo‘ldi. Madaniyatlar almashinuvi milliy identivlikka havf soladi. Shu bilan birga, mediada turli etnik o‘ziga xosliklarni ifodalash uchun imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Bu jarayonlarni Fotima Muminova quyidagicha ta’riflaydi: “Butun dunyo bo‘ylab axborot tarqatayotgan yangi ommaviy axborot vositalari, aslida, milliy chegaralarni yo‘q qilmoqda. Bu milliy o‘ziga xoslik ayrim jihatlari zamonaviy sharoitlarga to‘g‘ri kelmasligini olib keladi. Umuminsoniy tushunchalar bo‘lgan: inson huquqlari, turmush tarzi, axborot uzatish vositalari va boshqalar tez tarqalmoqda. Zamonaviy dunyoda jurnalistlar ko‘p xususiyatlarni qayta tahlil qilishlari kerak”.[2]

Yigirma birinchi asrdagi raqamlashuv jarayonlari auditoriyaning axborot qabul qilish uslubini o‘zgartirdi. Ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik jurnalistikasi ommalashib, har bir individ uchun shaxsiy o‘ziga xosligini namoish qilishga sharoit yaratdi. Zamonaviy media madaniyatlararo kommunikatsiya rivojlanishi va takomillashishi uchun platforma vazifasini o‘tadi. Umuman olganda, ommaviy axborot vositalarining shakllanishi va rivojlanish evolyusiyasi tarixiy jarayonida auditoriyaning ijtimoiy ongini shakllantirish, mentalitet, milliy o‘ziga xoslik masalalarining yoritilshi, madaniyataro muloqotning o‘rnatilishi kabi ijobiy xususiyatlar paydo bo‘ldi. So‘nggi davrda esa xalqaro madaniyat, global madaniyat kabi tushunchalar milliy indentivlik chegaralariga xafv soluvchi tahdidlar ekanini kuzatdik.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining milliy identivlikni namoyon etishi qator xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Medida turli urf-odatlar, qadriyatlar namoish etilishi, tahlilga tortib, millatning ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiradi. Ma’lum bir millatga xos bo‘lgan tilda tayyorlangan materiallar o‘sha tilni ommalashuvi, uning keng yoyilishiga xizmat qiladi. Shu o‘rinda etnik o‘ziga xoslikni ifodalashda turli sheva, lahjalardan foydalanish hududiy madaniy o‘ziga xoslikni tarannumi uchun xizmat qilishi mumkin. Bu xalq og‘zaki ijod namunalari, qo‘shiqlari, maqol va matallar shaklida bo‘lishi mumkin. OAVdagi gerb, bayroq kabi davlatning milliy ramzlarining namoishi ham, ma’lum bir millatga nisbatan daxldorlik, mansublik tuyg‘usin shakllanishiga turtki bo‘ladi.

OAVlagi ta’limiy dasturlar va hujjatli filmlar auditoriyaga millat tarixi, madaniyatidan xabardorlikni oshiradi. Shu bilan birga, migratsiya va millatlararo nizolar kabi muammolarni yoritish orqali milliy tushunchalarni kuchaytirish yoki bu masalalarni yanda chuqurlashtirishi mumkin. Globallashuv sharoitida milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolish uchun turli davlatlarda qator chora-tadbirlar amaliyotga tatbiq etildi. Bu jarayonning siyosiy ahamiyatini professor Fotima Muminova quyidagicha izohlaydi: “Identivlik xorijiy ommaviy axborot vositalarining ta’siri bilan millatni mafkuraviy boshqarishning zamonaviy shakliga aylandi. Axborotning chegarasizligi millatga begona ta’sirni cheklashning asosiy usuli bo‘ldi. Xalqaro ma’lumotlar ommaviy, ammo qat’iy tanlangan va sifat jihatidan tugallangan maxsus xarakterga ega ichki ma’lumotlar bilan to‘sildi”.[3]

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi axborotning cheklash imkoniyatini kamaytirdi. Ijtimoiy tarmoqlarda har bir foydalanuvchi o‘zining kontentini yarata boshladi. Fuqarolik jurnalistikasining bu ko‘rinishi foydalanuvchilarning har biri o‘zining identivligini namoish qilish, uni tarqatish va ommalashtirish uchun ham imkoniyat yaratdi. Zamonaviy texnologiyalar millliy identivlikni boshqarish va uni yakka tartibda ifodalash usullarini o‘zgartirdi. Ular auditoriyada tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zaruratini, katta axborot xajmini saralash ehtiyojini ham paydo qildi. Shuning uchun axborot vositalari orqali be-

---

[1] Мирзаева Е.С. Влияние ментальности на язык СМИ (на примере телевидения Узбекистана) Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, № 2 (31), зю 216–224 https://journal.fledu.uz ISSN: 2181-8215 (online)

[2] Муминова Ф. Национальная идентичность, менталитет и СМИ. https://ca- .org.ru/journal/2002/ journal_rus /cac-05/18.memrus.shtml

[3] Муминова Ф. Национальная идентичность, менталитет и СМИ. https://ca- .org.ru/journal/2002/journal_rus/cac-05/18.memrus.shtml

rilayotgan har qanday material milliy identivlikni saqlab qolishi barobarida, uni parchalashi yoki noto‘g‘ri tushunchalarni shakllantirishi mumkinligini unutmaslik kerak.

Ommaviy axborot vositalarida milliy o‘zlikni anglash muammolari ham mavjud. Masalan, OAV madaniyat va tarix voqealarini bir tomonlama, subyektiv yoritilishi mumkin. Shuningdek, turli etnik yoki madaniy guruhlar haqidagi stereotiplar orqali noxolis fikrlarning shakllanishiga ham olib keladi. Bu millatlararo munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, xorijiy OAV milliy identivlikning o‘ziga xos xususiyatlariga ta’sir qilib, an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy tendensiyalar o‘rtasida ziddiyat vujudga keltiradi. Professor Fotima Mo‘minova globallashuv sharoitida milliy identivlik masalalariga tahliliy yondashib, davlat chegaralari axborot tarqatishda jiddiy muammo bo‘lmasligini, ommaviy axborot vositalari tabiatiga axborotning cheksiziligi xosligini ta’kidlaydi: “...tahririyat, studiya yoki kompaniya o‘z auditoriyasiga, iloji boricha, ko‘proq odamlarni jalb qilishga intiladi. Ommaviy axborot vositalarining vazifalari, jumladan, axborot berish, tarbiyalash, madaniy xizmat ko‘rsatishdir. Agar milliy identivlikning asosiy mazmuni sifatida milliy chegaralarni nazarda tutsa, u xalqaro g‘oyalarga qarshi chiqolmaydi”.[1]

Siyosiy kuchlar ommaviy axborot vositalaridan milliy o‘ziga xoslikning ma’lum qiyofasini shakllantirish uchun o‘z manfaati yo‘lida foydalanib, jamoatchilik fikrini manipulyasiya qiladi. Dezinformatsiya va soxta xabarlar tarqalishi bilan ommaviy axborot vositalariga ishonch kamayadi. Ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishi milliy o‘zlikni shakllantirishda yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Noto‘g‘ri ma’lumotlarning tarqalishi, fikrlarning trollanishi va qutblanishi jamiyat ichidagi nizolarni ko‘paytiradi. Ko‘p millatli mamlakatlarda media turli madaniy guruhlarning integratsiyasi bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda. Integratsiya masalalarining noto‘g‘ri, yoki yetarli darajada yoritilmasligi tushunmovchiliklarga olib keladi. Bu masalalar jurnalist va mutaxassislar tomonidan milliy identivlikni aks ettirishda ilmiy yondashuvni talab qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, globallashuv jarayonida Osiyo mamlakatlarida zamonaviy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash, texnik yangilanishlarni o‘zlashtirish barobarida, hayotning turli jabhalarida milliy identivlikni saqlab qolishga alohida e’tibor qaratildi. Bu o‘ziga xoslik OAV tabiatida, faoliyatida ham aks etdi. Mavzuni chuqur tadqiq etgan Fotima Mo‘minova sharq xalqlariga xos bo‘lgan millliy identivlik bozor iqtisodiyoti sharoitidagi OAV rivojlanishiga mustahkam zamin bo‘la olishini ta’kidlaydi: “XX asrning so‘nggi choragi ishlab chiqarishning Osiyo usuli, shubhasiz, Yevropa yoki Amerikanikiga qaraganda ancha istiqbolli ekanligini ko‘rsatdi (Yaponiya, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, Xitoy va boshqalar). Yevropa Ittifoqi va Amerika korporatsiyalarga raqobatbardosh bo‘la oldi. Aynan milliy o‘ziga xoslik raqobatning yangi shakllari asos bo‘lgan muhim madaniy va ijtimoiy institut bo‘lib xizmat qildi. Shunday qilib, hozirgi rivojlangan Osiyo mamlakatlarida (jumladan, Gonkong, Singapur, Bahrayn va boshqalar) iqtisodiyot va ommaviy axborot vositalarining yuksalishi negizida aynan milliy o‘ziga xoslikning shakllari mavjud”.[2] Lekin yurtimizda, sobiq Sovet davlatining boshqa respublikalarida bo‘lgandek, milliy o‘ziga xoslik, milliy madaniyat va qadim tarix mavzulari yillar davomida taqiqlangan edi. Yurtimiz yillar davomida sharq madaniyati, mentalitetidan ancha uzoqlashdi, katta bir avlod sovet siyosatining g‘oyaviy bandisiga aylandi.

OAVda milliy o‘ziga xoslikni anglash g‘oyalari. Ommaviy axborot vositalari jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishi va davrning yetakchi g‘oyalarini keng auditoriyaga yetkazishi bilan ahamiyatlidir. Sovet davrida milliy identivlik va o‘zlikni anglash g‘oyalari yillar davomida taqiq ostida bo‘lgan. Ma’lumki, yurtimizda, avval, milliy istiqlol g‘oyalariga xizmat qilgan jadidlar, keyin esa o‘tgan asrning saksoninchi yillarida o‘zbek ziyolilari tomonidan bu mavzu ommaviy axborot vositalarida keng tahlilga tortilgan. Namangan davlat universiteti tarixchi olimi O‘tkir Jo‘rayev matbuotda milliy o‘zlikni anglashga xos bo‘lgan masalalarni o‘rgangan. Uning “XX asr 80-yillarida o‘zbek ziyolilarining ommaviy axborot vositalarida milliy o‘zlikni anglash uchun olib borgan kurashi”[3]nomli maqolasida shu masalalar tahlilga tortilgan. Tadqiqotchi O‘tkir Jo‘rayev tarixning bu davriga xolis baho beradi. Matbuotda biroz bo‘lsa-da, so‘z erkinligi uchun sharoit yaratilib, jurnalistlar mustaqil fikrlarini bayon etgan bu davrda, o‘zbek millatiga nisbatan salbiy atama qo‘llanilganligini yodga oladi. “1985-yili “qayta qurish” va jamiyatda ma’lum demokratik jara-

---

[1]Муминова Ф. Национальная идентичность, менталитет и СМИ. https://ca- .org.ru/journal/2002/journal_rus/cac-05/18.memrus.shtml

[2]Муминова Ф. Национальная идентичность, менталитет и СМИ. https://ca- .org.ru/journal/2002/journal_rus/cac-05/18.memrus.shtml

[3] Жураев Ў. (2023). Борьба узбекской интеллигенции за реализацию национальной идентичности в средствах массовой информации в 80-е годы XX века. Общество и инновации, 4(11/S), с. 146–152. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss11/S-pp146-152 https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/43305

yonlar boshlangandan so‘ng, “paxta ishi” matbuotda keng yoritildi va bu milliy o‘zlikni anglash jarayonining boshlanishi bo‘ldi. “O‘zbek ishi” degan ibora har qanday vijdonli odamning qonini qaynatadi. To‘g‘ri, dunyoga o‘t qo‘yib o‘zining qozonini qaynatgan olchoqlar bo‘lgan. Ammo ularning yigirma millionli o‘zbek xalqiga nima daxli bor? Agar “Arman ishi”, “Gruzin ishi”,“Rus ishi”, “Moldavan ishi” degan gap aytilsa, bu qardoshlarimiz o‘zlarini haqoratlangan his qilmasmidi? Uyog‘ini so‘rasangiz gap faqat iboraning o‘zida emas, butun dunyo nazarida O‘zbekistonning yuziga loy chaplandi. Holbuki, bunaqa ishlar mamlakatning hamma joyida bor edi”.[1]Xalqaro siyosiy maydonda Sovet davlatida oshkoralik, demokratiya amalga oshayotgandek qilib ko‘rsatilish uchun korrupsionerlikni o‘zbek millatining o‘ziga xos jihati sifatida talqin etilgan. O‘tkazilgan taftishlar, qatag‘onlarni “o‘zbek ishi” deb yuritiladi. Yurtimiz tarixining bu davrlari vaqti kelib yetarlicha ilmiy tahlilga tortilishi tadqiqotchilar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Mavzuimizga doir esa shuni aytish kerakki, jinoyatchilikni bir millatning nomi bilan atash siyosiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan qo‘pol xatodir. Bunday ishni zamonaviy dunyoda inson huquqlariga zid keluvchi, millatni kamsituvchi, etnik nizo keltirib chiqaruvchi xatti-harakat deb baholash mumkin.

Aynan shu davrda o‘zbek tilini davlat tili sifatida maqomini tiklash, uning nufuzini oshirish yo‘lida o‘zbek ziyolilari OAVda chiqishlar qilishdi. Mazkur davr haqida so‘z yurituvchi publitsistik asarlar, ilmiy maqolalarda bu borada batafsil ma’lumot beriladi. Milliy o‘ziga xoslikni tiklash, uni saqlab qolishning birlamchi talabi milliy til ekan, mavzuga doir maqolalarni tadqiqotchi O‘tkir Jo‘rayev shunday tahlil qiladi: “Milliy o‘zlikni anglash jarayonini kuchaytirishga qaratilgan eng dolzarb mavzu – o‘zbek tilining holatini yaxshilash bilan bog‘liq bo‘ldi. Shu davrda yozuvchi va shoirlar, olimlar va boshqa soha vakillari, ziyolilarning tashvishi borgan sari maishiy tilga aylanib qolayotgan ona tilimizning taqdiriga qaratildi. 1980-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab matbuotda, boshqa ommaviy axborot vositalarida o‘zbek tilining tashvishli holatiga bag‘ishlangan ko‘plab maqolalar paydo bo‘ldi. Ziyolilar o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish uchun kurash boshladi”.[2] Matbuotdagi o‘zbek tili mavzusining ko‘tarilishi o‘z samarasini ko‘rsatib, 1989-yilda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi beriladi. Milliy o‘ziga xoslikni anglashda jurnalistikaning ta’siri qanchalik katta ekanligini mana shu misolda yana bir bor ko‘rishimiz mumkin.

Milliy o‘zlikni anglashning ilk bosqichi milliy tilni tiklash bo‘lsa, keyingi qadam milliy urf-odatlar, qadriyatlarning nufuzini oshirish, ulardagi umuminsoniy xususiyatlarni tarannnum etish, milliy bayramlarga davlat bayrami maqomini berish edi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlarning yo‘qolib borishi qanday salbiy oqibatlarga olib kelganligini ko‘rgan o‘zbek ziyolilari matbuotda bu borada o‘z fikrlarini bildiradilar: “XX asrning 80-yillarida o‘zlikni anglash uchun olib borilgan kurashning yana bir muhim sohasi milliy urf-odatlarni tiklash uchun harakat bo‘ldi. Zero, KPSS mafkuraviy siyosatining SSSR xalqlari ma’naviyatiga jiddiy salbiy ta’siri natijasida jamiyatda madaniy-axloqiy muhit zaiflashdi, ma’naviy qashshoqlik sovet jamiyatini tobora inqirozga yetaklovchi kuchga aylana bordi. Bu holat oxir-oqibatda milliy tillarning jamiyat hayotidagi mavqeini pasayishiga, uzoq yillar davomida shakllanib kelgan qadriyatlar, urf-odatlar, an’analarni “o‘tmishning zararli sarqiti” sifatida ta’riflashga, ma’naviyatning uzviy qismi bo‘lgan dinni “xurofot va bid’at” deb talqin qilinishiga asos bo‘ldi”.[3]Milliy o‘zlikni anglashga bo‘lgan intilish davri o‘zbek jurnalistikasi tarixida alohida o‘rin tutadi. Milliy identivlikni qayta shakllantirishning o‘ziga xos modeli sifatida yurtimiz tarixining bu davri jahon ilm-fani uchun o‘ziga xos, hali yetarli o‘rganilmagan tarixiy jarayon bo‘lsa, ajab emas.

Natijalar va muhokamalar (Results and Discussions). Milliy identivlik shakllanishida tarix muhim o‘rin tutar ekan, sovet davrida tarixni siyosatga moslashtirib o‘zgartirish, almashtirish holatlari ko‘p edi. Bu o‘zbek xalqining o‘z millatini unutishi, o‘zligini anglamasligi uchun qilingan xatti-harakat bo‘lgandi. Tarixni soxtalashtirish asta-sekin barham topadi. Bunda matbuotda mavzuga doir xolis va haqqoniy tahliliy maqolalar berilishi alohida ahamiyat kasb etadi. “O‘zlikni anglashda milliy tariximizni, o‘z ildizlarimizni bilish ham so‘zsiz o‘zining muhim o‘rniga ega. 1980-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab omma-

[1] Жураев Ў. (2023). Борьба узбекской интеллигенции за реализацию национальной идентичности в средствах массовой информации в 80-е годы XX века. Общество и инновации, 4(11/S), с. 146–152. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss11/S-pp146-152 https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/43305

[2] Жураев Ў. (2023). Борьба узбекской интеллигенции за реализацию национальной идентичности в средствах массовой информации в 80-е годы XX века. Общество и инновации, 4(11/S), с. 146–152. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss11/S-pp146-152 https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/43305

[3] Жураев Ў. (2023). Борьба узбекской интеллигенции за реализацию национальной идентичности в средствах массовой информации в 80-е годы XX века. Общество и инновации, 4(11/S), с. 146–152. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss11/S-pp146-152 tps://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/43305

viy axborot vositalarida o‘zbek xalqining tarixiga oid sovet davrida shakllangan nazariyadan farqli qarashlar asosida yozilgan maqolalar paydo bo‘la boshladi”.[1]

Ma’lumki, sovet davrida dinsizlik tizimi hukmron bo‘lib, uning o‘rniga partiyaga va uning rahbarlariga sig‘inish siyosati singdirilgan. Shu bois tarixiy shaxslar yomonotliq qilinib, ming yillik qadriyat, din va e’tiqodlarimiz tarix varaqlaridan olib tashlangan, salbiy bo‘yoqda ifodalangan. Qadriyat, e’tiqod va milliy o‘ziga xoslik sifatida shakllangan Islom diniga qaytish ham mustaqillikning ilk yillarida boshlangan. Bu jarayon o‘zbek xalqining o‘zligini anglash, milliy mentalitetini oshkora namoyon etish davri bo‘lgan. Mazkur jarayonlar ommaviy axborot vositalarida o‘z aksini topgan. “Umuman, vatanimiz tarixiga e’tiborning kuchayishi ham mustaqillik arafasida milliy o‘zlikni anglashning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ldi. XX asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshlariga kelib, O‘zbekistonda, avval, diniy va milliy “millatchilik” yorliqlari yopishtirilgan va xolis o‘rganilishi ta’qiqlangan milliy xarakterdagi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar faoliyatini tadqiq etishga biroz erkinlik berildi. Natijada Islom dini va uning ahamiyati, tasavvuf (so‘fizm) masalalariga oydinlik kiritila boshlandi”.[2]

Xulosa, Sovet davrida mafkuraviy talab bo‘yicha xalqimizning milliy o‘ziga xosligini unuttirishga, uni kishilar ongidan chiqarib tashlashga urinish bo‘ldi. O‘z tarixi, dini, e’tiqodi, qadriyatlarini unutgan katta bir avlod voyaga yetdi. Din eskilik sarqiti sifatida, dinsizlik zamonaviylik va rivojlanish belgisi sifatida baholandi. Mustaqillikdan keyin vaziyat ancha o‘zgardi, milliy o‘zlikni anglash ehtiyoji davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi va aytish kerakki, bu masala o‘z vaqtida amalga oshirildi. Chunki globallashuv jarayonlari kundalik hayotga kirib kelar ekan, uning sabiy oqibatlaridan bo‘lgan milliy identivlikni saqlab qolish masalasi nihoyatda dolzarb bo‘layotganligini ta’kidlash kerak. Sharq xalqlariga nisbatan yillar davomida arosatda yashaganlar uchun bugungi kunda o‘zligini anglash masalasi hali ham mushkul vazifalardan biridir. Aholining katta qismi bunda Islom dini va e’tiqod orqali ana shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga harakat qilishayotganligini ta’kidlash kerak. Ammo milliy identivlikni saqlab qolish, globallashuv jarayonlarida o‘zligini yo‘qotib qo‘ymaslik soha mutaxassislari oldida turgan birlamchi vazifalardan biri ekanligini ta’kidlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Алимов Б.С. Медиа маконда миллий манфаатлар. Т., “Ta’lim–media” nashriyoti. 2019, 240-бет.

(2). Artiqova Y.A. Milliy o‘zlikni anglash: tarix, mohiyat va asosiy tushunchalar. “Ilm sarchashmalari”, 10-son (oktabr 2025) 121–124-betlar.

(3). Мирзаева Е.С. Влияние ментальности на язык СМИ (на примере телевидения Узбекистана) Scientificmethodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, № 2 (31), p. 216–224 https://journal.fledu.uz ISSN: 2181-8215 (online)

(4). Муминова Ф. Национальная идентичность, менталитет и СМИ. https://ca- .org.ru/journal/2002 / journal_rus/cac-05/18.memrus.shtml

(5). Жураев Ў. (2023). Борьба узбекской интеллигенции за реализацию национальной идентичности в средствах массовой информации в 80-е годы XX века. Общество и инновации, 4(11/S), с. 146–152. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss11/S-p146152https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/43305

Kallibekova Gulnara Palbekovna (QMU dotsenti)

IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETALAR: MAVZUSI, TILI VA USLUBI

Annotatsiya. *Maqolada gazetalarning mavzusi, tili va uslubi tadqiq etilgan. Gazeta matnlaridagi neologizmlar aniqlangan. Perifrazalarni ishlatishda jurnalist mahorati ochib berilgan. Tilning tasviriy vositalari gazeta matnlarida badiiylikni ta’minlashdagi xizmati o‘rganilgan. Gazeta maqollari va leksik taraqqiyot jarayonlariga keng e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *gazeta, gazeta tili, neologizm, perifraza, maqol, leksika, maqola, intervyu.*

ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ГАЗЕТЫ: ТЕМА, ЯЗЫК И СТИЛЬ

Аннотация. *В статье исследуется тематика, язык и стиль газет. Выявлены неологизмы в газетных текстах. В использовании перифраз раскрывается журналистское мастерство. Изуче-*

[1] Жураев Ў. (2023). Борьба узбекской интеллигенции за реализацию национальной идентичности в средствах массовой информации в 80-е годы XX века. Общество и инновации, 4(11/S), 146–152. https://doi.org/ 10.47689/2181-1415-vol4-iss11/S-pp146-152 https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/43305

[2] Жураев Ў. (2023). Борьба узбекской интеллигенции за реализацию национальной идентичности в средствах массовой информации в 80-е годы XX века. Общество и инновации, 4(11/S), 146–152. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss11/S-pp146-152 https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/43305